- изучение и туристическая оценка природных объектов в горе Мальгузар, таких как водопады, ручьи, родники, ручьи, пещеры, естественные каменные колонны, овраги, несколько столетних елей и орехов.

### **Литература**

1. Алибеков Л., Алибекова С., Хазаров И., Гудалов М. О некоторых закономерностях деградации геосистем в Центральной Азии. Татранка Яворина, Словакия, 2012. 21-том, № -1, -С. 42-44.
2. Жумаев Х.Х. Оценка историко-культурных рекреационно-туристских ресурсов региона (на примере Кашкардарьинской области). // Центральноазиатский журнал географических исследований. 2024. № 3-4. –С. 101-113.
3. Аббасов С., Жанизакова Г. Рекреационные ресурсы хребта Мальгузар. Научно технический прогресс. задачи и их решения. материалы международной научно пр. // актической (15 марта 2023 г, УФА) Экономика и социум. – С. 6-8.
4. Жанизакова Г. Эффективное использование биологических ресурсов горы Мальгузар. Инновационные разработки и исследования в образовании. Международная научная онлайн-конференция. -Канада, Оттава. Часть 27, 23-марта, 2024 года. –С. 203-205.
5. Жанизакова Г. Рекреационизм и перспективы туризма (на примере горы Мальгузар) Научно технический прогресс задачи и их решения. материалы международной научно практической (15 марта 2023 г, УФА) Экономика и социум. –С. 77-79.
6. Жанизакова Г. Охрана природных ресурсов горы Мальгузар. // «Экономика и социум» Выпуск №12(115) часть 1 (декабрь, 2023) <http://www.iupr.ru>. –С. 1089-1092.
7. Жанизакова Г., Меликузиев С., Нарзикулова М., Кучимов А. Меры по охране природных ресурсов хребта Мальгузар. ResearchGet Журнал анализа и изобретений, 2022. 3(04), -С. 219-223.
8. Солиев А. Экономическая и социальная география Узбекистана. –Ташкент: «Университет», 2014. –С. 404.
9. Указ Президента Республики Узбекистан от 5 января 2019 года № УП-5611 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в республике Узбекистан».
10. Грицина А.А. Древний Заамин. –Ташкент: «Фан», 2018. –С. 91.
11. Ага Бургутли. Святыни Джизакской области. –Ташкент: «Фан», 2008. –С. 25.

**РЕЗЮМЕ.** Ўзбекистоннинг экотуризм ресурсларига бой табиий-географик минтақаси – Мальгузар тоғларида экотуризмни ривожлантириш, экотуризм салоҳияти ва имкониятларини ўрганиш учун биринчи навбатда худуднинг алоҳида муҳофаза этиладиган табиий худудлари, ноёб табиий ландшафтлари, ўсимлик, ҳайвон турлари, рекреацион-соғломлаштириш зоналарини рўйхатга олиш ва тавсифларини тайёрлаш зарур. Мальгузар тоғ тизмасининг бетакрор табиий ландшафтлари ва экотуристик салоҳиятини ўрганиш мавзунинг илмий янгилигини оширади.

**РЕЗЮМЕ.** Для развития экотуризма, изучения потенциала и возможностей экотуризма в природно-географическом регионе Узбекистана – горах Мальгузар, богатых ресурсами экотуризма, в первую очередь необходимо провести регистрацию и подготовить описания особо охраняемых природных территорий, уникальных природных ландшафтов, видов растений, животных, рекреационно-оздоровительных зон региона. Изучение уникальных природных ландшафтов и экотуристического потенциала горного массива Мальгузар повышает научную новизну темы.

**SUMMARY.** In order to develop ecotourism, study the potential and opportunities of ecotourism in the natural and geographical region of Uzbekistan - the Malguzar Mountains, rich in ecotourism resources, first of all, it is necessary to register and prepare descriptions of specially protected natural areas, unique natural landscapes, species of plants, animals, recreational and health zones of the region. The study of unique natural landscapes and ecotourism potential of the Malguzar mountain range increases the scientific novelty of the topic.

# JIZZAX VILOYATI FAUNASINING TURISTIK AHAMIYATI

**M.R.G'ʻoʻdalov** – *geografiya fanlari boʻyicha falsafa doktori, dotsent*

**A.Z.Mirzayeva** – *tayanch doktorant*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Tayanch soʻzlar:** Jizzax viloyati, turizm, hayvonot dunyosi, madaniyat, sayyohlar, ekologik turizm, iqtisodiy rivojlanish, ilmiy tadqiqotlar.

**Ключевые слова:** Джизакская область, туризм, фауна, культура, туристы, экологический туризм, экономическое развитие, научные исследования.

**Key words:** Jizzakh region, tourism, fauna, culture, tourists, ecological tourism, economic development, scientific research.

**Kirish.** Turizm – bu insonlarning yangi joylarni kashf etish, madaniyatlarni va anʼanalarni bilan tanishish, dam olish va qiziqarli tajribalar oʻrttirish maqsadida sayohat qilish jarayonidir. U nafaqat iqtisodiy rivojlanishning muhim omili, balki ijtimoiy va madaniy almashinuvni taʼminlovchi jarayondir. Turizm, oʻzining xilma-xilligi va koʻp qirrali tabiati bilan, dunyo miqyosida eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Turizmning asosiy turlari mavjud. Masalan, madaniy turizm, tabiiy turizm, ekologik turizm, sogʻliqni saqlash turizmi, sarguzasht turizmi va boshqa koʻplab turlari bor. Har bir turi oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, sayyohlar uchun turli xil imkoniyatlar yaratadi. Madaniy turizm, asosan, tarixiy joylar, muzeylar, sanʼat asarlari va mahalliy anʼanalarni oʻrganishga qaratilgan. Tabiiy turizm esa, tabiiy goʻzalliklarni, milliy bogʻlarni va yovvoyi hayvonlarni kuzatishga qaratilgan. Ekologik turizm, tabiatni saqlab qolish va mahalliy ekosistemalarni himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Sogʻliqni saqlash turizmi esa, sayyohlarni sogʻlomlashtirish va dam olish maqsadida turli kurortlarga yoʻnaltiradi.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** Koʻp yillik olib borilgan statsionar tadqiqotlar, fondiviy materallar va ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida, Jizzax viloyati hududidagi hayvonot olami ilmiy-amaliy va turizmdagi ahamiyati jihatidan oʻrganilmoqda. Toʻplangan maʼlumotlar tahlil qilinganda, viloyat hududidagi hayvonlar balandlik mintaqalarga bogʻliq ravishda, yashash muhitlari jihatdan farqlanishi aniqlandi. Shunindan, viloyatning shimoliy-gʻarbiy hududlarini egallagan Aydar-Arnasoy koʻllari tizimi ham, suv va toʻqay hayvonlar turining oʻziga xosligi bilan ajralib turadi.

Viloyat hududida tarqalgan hayvonlarni aerokosmik, tabiiy geografik birliklarni dalada aniqlash, sanoq usuli, marshrutli ekspeditsiya, ekstrapolyatsiya, geografik oʻxshatish va landschaft indikatsiya tadqiqot usullaridan foydalanilgan holda tadqiq etiladi.

**Muhokama va natijalar.** Jizzax viloyati Oʻzbekistonning markaziy qismida joylashgan boʻlib, oʻzining boy tabiati, tarixiy va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Ushbu viloyatda hayvonot dunyosi ham oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, bu joyni sayyohlar va tabiiy muhitni sevuvchilar uchun qiziqarli qiladi. Jizzax viloyatining hayvonot dunyosi, oʻzining xilma-xilligi va goʻzalligi bilan ajralib turadi, bu esa uning ekologik muhitini saqlash va rivojlantirishda muhim rol oʻynaydi. Viloyatning tabiati, asosan, togʻli va oʻrmonli hududlardan iborat boʻlib, bu yerda turli xil hayvonlar yashaydi. Jizzax viloyatining togʻlarida va oʻrmonlarida yashovchi yovvoyi hayvonlar, masalan, qoʻziqorinlar, tulki, quyonlar, kabutarlar va boshqa koʻplab turlar mavjud. Bu hayvonlar, oʻz navbatida, ekosistemani saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat tabiiy muhitni boyitadi, balki mahalliy

aholi uchun oziq-ovqat manbai ham hisoblanadi [1:45].

Viloyat hududidagi suv havzalari turli xil hayvonlarni asrash, koʻpaytirish va muhofaza qilishda alohida ahamiyatga egadir. Aydar-Arnasoy koʻllari tizimining paydo boʻlishi suvga va toʻqay sharoitiga moslashgan maʼlum guruhdagi hayvon turlarining shakllanishiga sharoit yaratdi. Ayniqsa, mutlaqo yangi qushlar dunyosi paydo boʻldi. Issiqsevar qushlar bir yilda ikki marotaba yashash joylarini oʻzgartiradi. Bahorda ular shimol tomonga, kuz oylarida janub tomonga harakatlanadi. Ushbu harakat davrida qushlar koʻl ustiga qoʻnib oʻtadi va 500 mingdan ortiq qushlar koʻllarda qishlab qolishi aniqlangan. Bunday qushlarga qashqoldoq (*Fulica atra*), qirgʻovul (*Phasianidae*), oq boʻvur (*Pterocles alchata*), gʻoz (*Anser*), turna (*Gruidae*), laylak (*Ciconia*), yovvoyi oʻrdak (*Anas*) va boshqalar kiradi.

Aydar-Arnasoy koʻllari tizimida 14 turkumga mansub 220 tur qushlar yashashligi aniqlangan. Koʻllar maydonining kattalashuvi, chuqur boʻlmagan suv havzalarining paydo boʻlishi ozuqa va himoya sharoitlarining yaxshilanishi hisobiga suvda suzuvchi qushlar sonining ortishiga imkon beradi. Suv havzasi koʻplab qushlarning yashashi va koʻpayishi uchun qulay sharoitlarga ega. Bularga yovvoyi oʻrdak (*Anas*), qizil oʻrdak (*Casarca ferruginea*), qizil bosh (*Aythya ferina*), olmabosh (*Netta rufina*), kulrang gʻoz (*Anser anser*), saqqoqush (*Pelecanus*), oq qush, qoravoy (*Plegadis falcinellus*), oqqoʻton (*Egretta alba*), layxoʻraklar (*Ciconia*) va boshqalar kiradi.

2000-yilning boshida Aydar-Arnasoy koʻllari tizimi sohillariga, yaʼni Qizilqum choʻllariga tutash hududlarga Saudiya Arabistondan keltirilgan tojkor lochinlar maxsus belgilar ostida qoʻyilib yuborildi. Ornitologlarning maʼlumotiga koʻra, tojkor lochinlar soni 2014-yilda 25-30 nafarga koʻpaygan edi (Sharipov M, 2014 y). Hozirgi kunda tojkor lochinlarning sonini bundan ham koʻpayganligini taxmin qilsa boʻladi. Bu yerda yashovchi qushlarning 13 turi Xalqaro “Qizil kitob”ga, 24 turi Oʻzbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan.

Aydar-Arnasoy koʻllari tizimi va uning atrofidagi ekoturistik hududining tabiatini tomosha qilish va belgilangan hududda ov qilish maqsadida arab sayyohlari yilda 2 marotaba (bahor va kuz faslida) doimiy ravishda dam olishga kelmoqda. Arab sayyohlarini bu hududga qiziqishiga, koʻl va choʻl manzaralarining oʻzaro uygʻunligi hamda qushlar olamiga boyligi, qolaversa, bahor va kuz faslida issiq mintaqalarga uchuvchi qushlarni Aydar-Arnasoy koʻllari orqali harakatlanishini kuzatish va baʼzi bir ruxsat berilgan qushlarni ov qilishi ham doimiy ravishda kelishiga sabab boʻlmoqda. Arab sayyohlari ov qilishining eng eʼtiborli tomoni shundaki, ov jarayonida asosan oʻzlari bilan olib kelingan lochin qushlaridan foydalanadi. Lochin

qushlari bilan ov qilish, ov miltiqlari bilan ov qilishga qaraganda tabiatga katta zarar yetkazmaydi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida 22 turdagi baliqlar yashaydi. Shundan 13 turi mahalliy hisoblanadi. O'tgan asrning 60 yillarida O'zbekistonda baliqchilikni rivojlantirish, kanal va ariqlarni turli xil o'tlardan tozalash, bezgak tarqatuvchi pashshalarni kamaytirish maqsadida sobiq ittifoqning shimoliy suv havzalaridan turli xil baliq turlarini olib kelib, ko'paytirildi. Masalan, oq amur, gambuziya, do'ngpeshona va boshqalar. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimiga 7 turdagi baliqlar Sirdaryo daryosi orqali o'tgan. Umuman baliqlarning 14 ta turi katta ovchilik ahamiyatiga ega. Bularga laqqabaliq, zog'orabaliq, oq qayroq, lesh, sudak, oqola, qizilqo'z, tovanbaliq, ilonbosh va boshqalar kiradi. Kamayib ketganligi uchun Turkiston sermo'ylovi balig'i O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan.

Suv havzalardagi hayvonot dunyosining turistik ahamiyatini oshirish uchun, shuningdek, reklama va marketing faoliyatlarini kuchaytirish zarur. Sayyohlar uchun qiziqarli va jalb etuvchi reklama kompaniyalari, viloyatning hayvonot dunyosini va uning go'zalligini taqdim etish orqali sayyohlarni jalb qilish imkonini beradi [4:20].

Jizzax viloyatidagi hayvonot dunyosining turistik ahamiyati, shuningdek, mahalliy iqtisodiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turizm rivojlanishi bilan birga, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi. Sayyohlar viloyatga kelganida, ular mahalliy restoranlar, mehmonxonalar va turistik xizmatlardan foydalanadilar. Bu esa mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Mahalliy aholi, o'z navbatida, hayvonot dunyosini saqlash va muhofaza qilishga qiziqish bildirishadi, chunki bu ularning iqtisodiy farovonligini oshirishga yordam beradi. Hayvonot dunyosining turistik ahamiyatini yanada oshirish uchun Jizzax viloyatida turli xil tadbirlar va faoliyatlar tashkil etish mumkin. Masalan, hayvonot dunyosini o'rganish bo'yicha ekskursiyalar, tabiatni saqlashga qaratilgan seminarlar va tadbirlar o'tkazish orqali sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasida muloqot o'rnatish mumkin. Bunday tadbirlar, nafaqat sayyohlarning qiziqishini oshiradi, balki mahalliy aholi uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi [5:10].

Jizzax viloyatining hayvonot dunyosini rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlar va monitoring olib borish muhim-

dir. Hayvonot turlarining soni va tarqalishi, ularning yashash muhitlari va ekologik holatini o'rganish, viloyatning hayvonot dunyosini saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, Jizzax viloyatidagi hayvonot dunyosini saqlash va rivojlantirishda davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik, tabiatni muhofaza qilish va ekologik turizmni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda yordam beradi. Hayvonot dunyosining turizmga ahamiyatini yanada oshirish uchun, Jizzax viloyatida hayvonlarni himoya qilish va ularni muhofaza qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish zarur. Bu dasturlar, hayvonot dunyosini saqlashga qaratilgan loyihalar va tadbirlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Sayyohlar, bunday dasturlar orqali hayvonot dunyosini o'rganish, uni saqlashga hissa qo'shish va mahalliy aholi bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi [6:55].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, hayvonot dunyosi landshaftlarning tarkibiy komponenti sifatida turizmga ahamiyati yuqoridir. U nafaqat tabiiy go'zalliklarni boyitadi, balki iqtisodiy rivojlanishga, ekologik muammolarni hal qilishga va madaniy almashinuvga yordam beradi. Shuning uchun, ekoturizmni rivojlantirishda hayvonot dunyosini saqlab qolish va uni turizmga samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, kelajak avlodlarga toza va sog'lom muhitni taqdim etishda muhim rol o'ynaydi.

Jizzax viloyatida hayvonlarni muhofaza qilish va turizmga ahamiyatini oshirish uchun, quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- Viloyat hududida maxsus pitomniklar tashkil qilish orqali, turlari kamayib borayotgan hayvonlarni ko'paytirish lozimdir. Turistlarni pitomniklarga borib, noyob hayvonlarni tomosha va ularni oziqlantirish imkoniga ega bo'ladi;

- Viloyatni alohida muhofaza qilinadigan hududlarida binokillar yordamida hayvonlar migratsiyasini kuzatadigan "maxsus kuzatuv joylari" tashkil qilish lozim;

- Qushlarni bahorgi va kuzgi sanoq davrida sanash uchun o'quvchilarni ham jalb qilinsa, tabiatga bo'lgan mehr yanada ortar edi;

- Jizzax shahrida hayvonot bog'ini tashkil loyihalarini ishlab chiqish lozim.

#### **Adabiyotlar**

1. Абдукодилов А. Дикая природа Узбекистана и ее роль в туризме. // Академия наук Узбекистана. 2020. № 3.
2. Аскарлов С. Дикие животные и их значение в туризме. // Министерство сельского и водного хозяйства Республики Узбекистан. 2018. №5.
3. Каримов Р. Экологический туризм: на примере Джизакской области. // Джизакский государственный педагогический институт. 2019. № 2.
4. Муродов Д. Дикая природа и туризм: возможности Джизакской области. // Джизакский государственный университет. 2021. № 4.
5. Рузиев А. Охрана природы и туризм: опыт Узбекистана. // Государственный комитет по экологии и охране окружающей среды Республики Узбекистан. 2021. № 7.
6. Сатторов М. Дикая природа и экологический туризм. // Министерство охраны окружающей среды Республики Узбекистан. 2020. № 6.
7. Худойбердиев Б. Развитие экотуризма в Джизакской области. // Центр развития туризма Джизакской области. 2022. № 1.

**REZYUME.** Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, o'zining tabiiy go'zalliklari, tarixiy obidalari va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Bu hududda turli xil mintaqalarda va suv havzalarida yashaydigan hayvonlarni, landshaftlarni bir komponenti sifatida o'rganish ham muhimdir. Shuningdek, hayvonot dunyosi nafaqat tabiiy muhitni boyitadi, balki sayyohlar uchun qiziqarli va ma'rifiy tajribalar taqdim etadi. Jizzax viloyatidagi hayvonot dunyosi, uning turizm imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada Jizzax viloyatida turizmni rivojlanishida hayvonot dunyosining turistik ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

**РЕЗЮМЕ.** Джизакская область расположена в центральной части Узбекистана, отличается своей природной красотой, историческими памятниками и культурным наследием. Значение фауны в развитии туризма в этом регионе имеет особое значение. Фауна не только обогащает природную среду, но и предоставляет интересные и познавательные впечатления для туристов. Фауна Джизакской области играет важную роль в расширении ее туристических возможностей. В данной статье представлена информация о туристическом значении фауны в развитии туризма в Джизакской области.

**SUMMARY.** Jizzakh region is located in the central part of Uzbekistan, is distinguished by its natural beauty, historical monuments and cultural heritage. The importance of the fauna in the development of tourism in this region is of particular importance. The fauna not only enriches the natural environment, but also provides interesting and educational experiences for tourists. The fauna of Jizzakh region plays an important role in expanding its tourism opportunities. This article provides information on the touristic importance of the fauna in the development of tourism in Jizzakh region.

## **QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOG'I RIVOJLANISHINING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI**

**N.E.Nurmatov** – *assistent o'qituvchi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** Qashqadaryo viloyati, chorvachilik, hududiy xususiyatlar, yaylovlar, iqtisodiy samaradorlik.

**Ключевые слова:** Кашкадарьинская область, животноводство, территориальная характеристика, пастбища, экономическая эффективность.

**Key words:** Kashkadarya region, livestock farming, territorial features, pastures, economic efficiency.

**Kirish.** Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda chorvachilik tarmog'i strategik ahamiyatga ega bo'lib, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, chorvachilik mahsulotlari insoniyatning protein, yog' va muhim mikroelementlar bilan ta'minlanishida asosiy manba hisoblanib, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda oziq-ovqat yetishmovchi-ligining oldini olishda chorvachilikni rivojlantirish muhim strategik vosita sifatida qaralmoqda, chunki ushbu sektor nafaqat aholini go'sht, sut, tuxum kabi mahsulotlar bilan ta'minlaydi, balki qishloq hududlarida bandlik darajasini oshirish, fermer va dehqon xo'jaliklarining daromadini ko'paytirish, global oziq-ovqat ta'minot zanjirini mustahkamlash hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi jihatlari bilan ham iqtisodiy-geografik ahamiyat kasb etadi, shuningdek, FAO hisob-kitoblariga ko'ra, chorvachilik qishloq xo'jaligi mahsulotlarining global qiymatining 40 foizini tashkil etadi va qariyb 1,3 milliard kishining turmush tarzi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi [11]. Chorvachilik mahsulotlarining jahon oziq-ovqat eksportida ulushi yildan-yilga ortib, global talabni qondirishda strategik resurs sifatida qaralmoqda, shu bilan birga, iqlim o'zgarishi va resurslardan foydalanish masalalarini hisobga olgan holda, barqaror chorvachilik amaliyotlarini tatbiq etish hamda intensiv texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri bo'lib qolmoqda [1]. Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning yirik chorvachilik mintaqalaridan biri bo'lib, uning hududiy-iqlimiy xususiyatlari chorvachilik tarmog'ining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki viloyatning tekislik va tog'oldi hududlarida yaylov chorvachiligi uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lishi bilan birga, sug'oriladigan dehqonchilik hududlarida intensiv chorvachilik turlarini rivojlantirishga sharoit yaratilganligi aholi ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [2].

**Asosiy qism.** Qashqadaryo viloyatining chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishda tabiiy-geografik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, ayniqsa, iqlim va relyef sharoitlari chorvachilik yo'nalishlari bo'yicha hududiy ixtisoslashuvga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki viloyatning

g'arbiy va markaziy qismlarida nisbatan tekislik hududlar ustunlik qilsa, shimoli-sharqiy va sharqiy qismlarida tog'li hamda tog'oldi landshaftlari keng maydonni egallaydi, bu esa yaylov chorvachiligining asosiy hududiy tarkibini shakllantiradi va chorvachilik mahsulotlarining sifati hamda ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Iqlim sharoitlariga ko'ra, viloyatning katta qismi keskin kontinental iqlim ta'sirida bo'lib, yozning jazirama issiq va qurg'oqchil kechishi, qishning esa nisbatan sovuq bo'lishi hayvonlarning boqish uslubini belgilaydi, shuningdek, yog'ingarchilikning yil fasllari bo'yicha notekis taqsimlanishi, bahorgi va kuzgi namlik darajasining yem-xashak o'sishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi sababli, yaylov resurslaridan foydalanish davomiyligi va mahsuldorligi hududiy farqlarga ega [3, 5, 10]. Tog'oldi va tog'li hududlarda yaylovlardan yil davomida foydalanish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, sovuq qish oylarida chorva mollari uchun qo'shimcha oziq-ovqat zaxirasini yaratish talab etiladi, shu boisdan, viloyatning turli zonalarida iqlim va relyef sharoitlariga mos chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim [6].

Qashqadaryo viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar soni 1,73 million boshni tashkil etib, bu hududning chorvachilik salohiyatini yaqqol namoyon qiladi va viloyat ichida tumanlar bo'yicha sezilarli farqlar mavjud bo'lib, xususan, eng ko'p qoramol Koson (187,5 ming bosh), Qarshi (165,4 ming bosh) va Kasbi (150,4 ming bosh) tumanlarida boqilayotgani hududning yem-xashak resurslari bilan ta'minlanganligi, sug'oriladigan yaylovlar va yirik fermer chorvachilik xo'jaliklari faoliyat yuritayotganligi bilan bog'liqdir (1-jadval). Shu bilan birga, tog'li va nisbatan cheklangan ozuqa bazasiga ega bo'lgan Shahrisabz (92,8 ming bosh) hamda Dehqonobod (91,5 ming bosh) tumanlarida qoramollar soni kamroq bo'lib, bu yerda chorvachilik asosan an'anaviy, dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga rivojlangan hamda yaylov chorvachiligi ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, Ko'kdala tumanida yirik shoxli qoramollar sonining oldingi yilga nisbatan sezilarli oshgani, bu hududda chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan iqtisodiy dasturlar va fermer xo'jaliklari sonining ortishi bilan bog'liq.

**1-jadval. Qashqadaryo viloyati chorva mollari va parrandalar bosh soni (2025-yil, 1-yanvar holatida)**

| №                       | Tumanlar   | Yirik shoxli qoramollar soni, ming bosh | Qo'y va echkilar bosh soni, ming bosh | Otlar bosh soni, bosh | Parrandalar bosh soni, ming bosh |
|-------------------------|------------|-----------------------------------------|---------------------------------------|-----------------------|----------------------------------|
| 1                       | Kitob      | 143,5                                   | 150,0                                 | 1771                  | 528,2                            |
| 2                       | Shahrisabz | 92,8                                    | 108,6                                 | 1611                  | 844,0                            |
| 3                       | Yakkabog'  | 105,1                                   | 157,2                                 | 3290                  | 611,7                            |
| 4                       | Dehqonobod | 91,5                                    | 762,7                                 | 4187                  | 186,6                            |
| 5                       | G'uzor     | 92,4                                    | 621,5                                 | 3420                  | 496,6                            |
| 6                       | Qamashi    | 120,6                                   | 245,3                                 | 5123                  | 482,0                            |
| 7                       | Ko'kdala   | 97,9                                    | 273,3                                 | 3157                  | 520,3                            |
| 8                       | Chiroqchi  | 130,8                                   | 391,5                                 | 4448                  | 577,5                            |
| 9                       | Qarshi     | 165,4                                   | 227,7                                 | 1601                  | 440,7                            |
| 10                      | Kasbi      | 150,4                                   | 199,1                                 | 1706                  | 223,7                            |
| 11                      | Koson      | 187,5                                   | 625,3                                 | 2906                  | 557,2                            |
| 12                      | Mirishkor  | 101,2                                   | 440,0                                 | 1838                  | 522,2                            |
| 13                      | Muborak    | 116,4                                   | 541,0                                 | 1293                  | 245,8                            |
| 14                      | Nishon     | 133,5                                   | 327,5                                 | 1627                  | 343,6                            |
| <b>Viloyat bo'yicha</b> |            | <b>1729</b>                             | <b>5070,7</b>                         | <b>37978</b>          | <b>6580,1</b>                    |

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Qo'y va echki soni bo'yicha Qashqadaryo viloyati 5,07 million bosh mayda shoxli chorva mollari bilan mamlakatda yetakchi hududlardan biri hisoblanib, ayniqsa, Dehqonobod (762,7 ming bosh), Koson (625,3 ming bosh) va G'uzor (621,5 ming bosh) tumanlari yetakchilik qilmoqda (1-jadvalga qarang), chunki bu hududlarda tabiiy yaylovlar keng maydonni egallagan bo'lib, ekstensiv chorvachilik usullari qo'llaniladi va chorva mollarinin asosiy ozuqa manbayi yil bo'yi yaylov hisoblanadi. Ayniqsa, cho'l hududlarida joylashgan Muborak (541,0 ming bosh) va Mirishkor (440,0 ming bosh) tumanlarida ham qo'ychilik yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ushbu hududlarda mayda shoxli chorva mollarinin ko'pligi viloyat iqtisodiyotida qo'ychilik mahsulotlari yetishtirish va eksport qilish salohiyatining ortib borayotganini anglatadi [7].

Viloyatda otchilikni rivojlantirish sohasida ham sezilarli darajada o'zgarishlar bo'lib, umumiy hisobda 37 978 bosh ot mavjud bo'lsa-da, ularning tumanlar bo'yicha taqsimlanishida aniq hududiy farqlar mavjud bo'lib, ayniqsa, Qamashi (5 123 bosh), Chiroqchi (4 448 bosh) va Dehqonobod (4 187 bosh) tumanlari ot boqishda yetakchi hisoblanadi (1-jadvalga qarang). Ushbu hududlarda ot boqish an'anaviy tarzda rivojlangan bo'lib, chorvachilikning bu turi tog'li va tog' oldi yaylovlarining kengligi, mahalliy aholining ot boqish va undan turli maqsadlarda foydalanish tajribasi hamda ot go'shti va sut mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, Ko'kdala (3 157 bosh) va Koson (2 906 bosh) tumanlarida ham yilqichilik an'anaviy ravishda rivojlanib, ushbu hududlarda yilqichilik mahsulotlarini bozorga chiqarish hajmi ortib borayotgani

kuzatilmoqda. Biroq Muborak (1 293 bosh) va Qarshi (1 601 bosh) tumanlarida ot boqish unchalik rivojlanmagan bo'lib, bu hududlarda chorvachilikning boshqa turlariga, xususan, qoramolchilik va parrandachilikka ustuvor e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

Parrandachilik Qashqadaryo viloyatining chorvachilik tarmoqlari ichida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyatda 6,58 million bosh parrandalar mavjud bo'lib, ayniqsa, Shahrisabz (844,0 ming bosh), Yakkabog' (611,7 ming bosh) va Chiroqchi (577,5 ming bosh) tumanlarida parrandalar sonining yuqoriligi (1-jadvalga qarang) ushbu hududlarda zamonaviy parrandachilik fabrikalari faoliyat yuritayotgani hamda ichki bozor bilan bir qatorda eksport bozorlariga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Qarshi (440,7 ming bosh), Ko'kdala (520,3 ming bosh) va Mirishkor (522,2 ming bosh) tumanlarida ham parrandachilik yetarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, viloyatning ayrim tumanlarida, masalan, Muborak (245,8 ming bosh) va Kasbi (223,7 ming bosh) hududlarida parrandalar soni nisbatan kam bo'lib, bu yerda iqlim sharoitlari va yem-xashak bazasining chegaralanganligi sababli sanoat usulidagi parrandachilik xo'jaliklari yetarlicha rivojlanmagani kuzatiladi.

**2-jadval. Qashqadaryo viloyati chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish (2025-yil, 1-yanvar)**

| №                       | Tumanlar   | Go'sht, tirik vaznda, tonna | Sut, tonna     | Tuxum, ming dona | Baliq, tonna  |
|-------------------------|------------|-----------------------------|----------------|------------------|---------------|
| 1                       | Kitob      | 22020,5                     | 125030,0       | 30684            | 324,1         |
| 2                       | Shahrisabz | 16018,3                     | 106733,9       | 85164            | 412,1         |
| 3                       | Yakkabog'  | 20352,2                     | 90684,0        | 46082            | 655,3         |
| 4                       | Dehqonobod | 25438,6                     | 55389,7        | 15122            | 20,0          |
| 5                       | G'uzor     | 30307,6                     | 73613,2        | 33220            | 135,8         |
| 6                       | Qamashi    | 38846,0                     | 108359,5       | 60467            | 41,8          |
| 7                       | Ko'kdala   | 20987,1                     | 81317,3        | 36059            | -             |
| 8                       | Chiroqchi  | 28264,6                     | 91373,9        | 25289            | 332,8         |
| 9                       | Qarshi     | 26171,0                     | 111149,5       | 49512            | 149,4         |
| 10                      | Kasbi      | 24074,6                     | 119470,0       | 22397            | 48,0          |
| 11                      | Koson      | 28342,2                     | 203004,8       | 52537            | 220,1         |
| 12                      | Mirishkor  | 20996,4                     | 68457,7        | 37710            | 1199,5        |
| 13                      | Muborak    | 17856,0                     | 64047,0        | 20840            | 88,0          |
| 14                      | Nishon     | 19577,4                     | 52755,6        | 12043            | 693,9         |
| <b>Viloyat bo'yicha</b> |            | <b>339252,5</b>             | <b>1351386</b> | <b>527126</b>    | <b>4320,8</b> |

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Qashqadaryo viloyatida 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, go'sht yetishtirish hajmi 339,2 ming tonnaga yetib,

viloyat chorvachilik tarmog'ining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda va tumanlar kesimida sezilarli farqlar kuzatilmoqda. Jumladan, go'sht ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi tumanlar orasida Qamashi (38,8 ming tonna), G'uzor (30,3 ming tonna) va Dehqonobod (25,4 ming tonna) tumanlari ajralib turib (2-jadval), bu hududlarning keng yaylovlarga egaligi va mayda shoxli chorva mollari sonining ko'pligi bilan bog'liqdir. Koson (28,3 ming tonna) va Chiroqchi (28,2 ming tonna) tumanlari ham go'sht yetishtirish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu hududlarda qoramolchilik va qo'ychilikning an'anaviy tarzda rivojlanganligi va so'nggi yillarda chorvachilik fermalarining soni oshgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Muborak (17,8 ming tonna) va Nishon (19,5 ming tonna) tumanlarida go'sht ishlab chiqarish hajmi nisbatan past bo'lib, bu hududlarda yaylov maydonlarining boshqa tumanlarga nisbatan cheklanganligi va aholining chorvachilikdan ko'ra boshqa tarmoqlarga ko'proq e'tibor qaratishi bilan bog'liqdir.

Sut ishlab chiqarish hajmi 1,35 million tonnani tashkil etib, bu ko'rsatkich bo'yicha Koson tumani (203 ming tonna) viloyatda yetakchi o'rinni egallaydi, chunki bu hududda sut chorvachiligi keng rivojlangan bo'lib, ixtisoslashgan dehqon va tomorqa xo'jaliklari soni ortib bormoqda. Kasbi (119,4 ming tonna), Kitob (125 ming tonna) va Qarshi (111,1 ming tonna) tumanlari ham sut yetishtirish bo'yicha yuqori natijalarga ega bo'lib (2-jadvalga qarang), bu hududlarda o'rta va yirik miqyosdagi qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining ko'pligi hamda dehqon va tomorqa xo'jaliklarida sigirlar sonining ko'payishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Dehqonobod (55,3 ming tonna) va Nishon (52,7 ming tonna) tumanlarida sut ishlab chiqarish hajmi ancha past bo'lib, bu yerda qoramolchilik asosan ekstensiv usulda, ya'ni yaylov chorvachiligi shaklida rivojlangan.

Parrandachilik sohasida viloyatda 2025-yil holatiga ko'ra, 527,1 million dona tuxum ishlab chiqarilgan bo'lib, bu mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari hududlar kesimida sezilarli farqlarga ega. Shahrisabz (85,1 million dona), Koson (52,5 million dona) va Qarshi (49,5 million dona) tumanlari tuxum ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab, bu hududlarda zamonaviy parrandachilik fabrikalarining faoliyati keng yo'lga qo'yilganini va bozorlarga yetkazib berilayotgan mahsulot hajmining ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Nishon (12 million dona) va Dehqonobod (15,1 million dona) tumanlarida tuxum ishlab chiqarish hajmi ancha past bo'lib, bu hududlarda parrandachilik xo'jaliklari nisbatan kamligi va parrandalarni asosan oilaviy xo'jaliklarda boqish tendensiyasi saqlanib qolayotganini anglatadi.

Baliqchilik Qashqadaryo viloyatining chorvachilik sohasi tarkibida hali to'liq shakllanmagan, lekin oxirgi yillarda sezilarli rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyatda jami 4,3 ming

tonna baliq yetishtirilgan. Baliq yetishtirish bo'yicha Mirishkor tumani (1 199,5 tonna) yetakchi o'rinni egallab (2-jadvalga qarang), bu hududda baliqchilik xo'jaliklari sonining ortib borayotganini va tabiiy suv havzalari hamda sun'iy havzalar orqali baliqchilik sanoati rivojlanayotganini ko'rsatadi. Nishon (693,9 tonna) va Yakkabog' (655,3 tonna) tumanlari ham baliqchilik bo'yicha yaxshi natijalarga ega bo'lib, bu hududlarda baliq yetishtirishga iqlim sharoitlari mos kelishi hamda suv resurslarining mavjudligi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, tog'li hududlar, xususan, Dehqonobod (20,0 tonna) va Qamashi (41,8 tonna) tumanlarida baliqchilik deyarli rivojlanmagan bo'lib, bu yerda suv resurslarining chegaralanganligi hamda baliq yetishtirish uchun zarur bo'lgan infratuzilmaning to'liq shakllanmagani bilan izohlanadi. Kelgusida viloyatda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish uchun sun'iy suv havzalarini ko'paytirish, intensiv baliqchilik texnologiyalarini joriy etish va sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi [4, 7, 9].

**Xulosa.** Qashqadaryo viloyatida chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin bo'lib, ular hududiy xususiyatlar, tabiiy-iqlim sharoitlari va iqtisodiy-geografik omillarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Avvalo, viloyatning tekislik hududlarida, xususan, Mirishkor, Muborak va Nishon tumanlarida yaylov chorvachiligini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy yem bazasini shakllantirish, suv ta'minotini yaxshilash va chorva mollari uchun veterinar xizmatlar sifatini oshirish zarur. Bu hududlarda ayniqsa qo'ychilik va echkichilik istiqbolli yo'nalish bo'lib, ushbu sohalarida genetik seleksiya ishlarini jadallashtirish, mahsuldor zotlarni ko'paytirish va yaylovlardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tumanlarda go'sht ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida yirik qoramolchilik komplekslarini tashkil etish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va chorva mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kelajakda Qashqadaryo viloyatining chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish uchun hududiy xususiyatlarga asoslangan istiqbolli yo'nalishlar ishlab chiqilishi lozim. Masalan, cho'l hududlarida naslli qo'ychilikni rivojlantirish va ularni eksport qilishga yo'naltirish, tog'li hududlarda organik sut va go'sht ishlab chiqarish tizimini yo'lga qo'yish, tekislik hududlarida intensiv qoramolchilik va parranda yetishtirish klasterlarini tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, viloyatda chorvachilikni ilmiy asosda rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ekologik barqarorlik tamoyillariga rioya qilish orqali bu sohadan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni oshirish va viloyat chorvachiligini milliy hamda xalqaro bozorlarga integratsiyalash maqsadida zamonaviy strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar**

1. Ракитников А.Н. Избранные труды – Под ред. В.Г.Крюкова. – Смоленск: «Ойкумена», 2003. –С. 472.
2. Солиев А. Иктисодий география: назария, методика ва амалиёт. – Т.: «Камалак», 2013. 184-б.
3. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги географияси. (монография). –Қарши: «Университет», 2019. 245-б.
4. Nurmatov N. Economic and geographical factors of regional organization of agriculture and innovative development // International multidisciplinary journal for Research & development. - India, eISSN 2394-6334 Volume 10, issue 12 (2023) -P.439-442

5. Nurmatov N.E. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog'i rivojlanishiga ta'sirining asosiy xususiyatlari. // – Россия: «Экономика и социум», № 2(117) 1 (февраль, 2024). –С. 510- 517
6. Nurmatov N.E. Chorvachilikni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy sharoit va resurs omillarining asosiy xususiyatlari. // «O'zbekiston zamini», 2024-yil, 4-son, 69-71-b.
7. Nurmatov N.E. Economic and geographical factors affecting livestock development in ensuring food security. // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Belgiya. December 2024. -P. 43-46
8. Faizullaev M.A. Main characteristics of the formation of a geographic conveyor in agricultural development. // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Vol. 4 №. 2 (2023) – P. 89-92. ISSN 2776-0979.
9. Faizullaev M.A. The main features of agricultural reforms in the development of the economy of Uzbekistan. // «Science and education in Karakalpakstan» Science Magazine, ISSN 2181-9203 №1/1(30) – Nukus: 2023. – P. 119-121.
10. Fayzullayev M.A. O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi. Monografiya. -T.: «Kitob bilim yog'dusi», 2024. 258-b.
11. <https://www.fao.org/agrifood-economics/publications/detail/en/c/1132943/>

**REZYUME.** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida chorvachilik tarmog'ining hududiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Viloyatning tabiiy-geografik sharoitlari, iqlim omillari va yaylov resurslarining chorvachilik rivojiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, mintaqadagi chorva turlari tarkibi, ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy samaradorlik masalalariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, chorvachilik tarmog'ining barqaror rivojlanishi uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье анализируются региональные особенности животноводства Кашкадарьинской области. Изучено влияние природно-географических условий региона, климатических факторов, пастбищных ресурсов на развитие животноводства. Также будет уделено внимание видовому составу скота в регионе, объему производства и экономической эффективности. На основе результатов исследований будут разработаны научно-практические рекомендации по устойчивому развитию животноводческой отрасли.

**SUMMARY.** This article analyzes the territorial features of the livestock industry in the Kashkadarya region. The influence of the natural and geographical conditions of the region is studied climatic factors and pasture resources on the development of livestock farming. Attention is also paid to the issues of the composition of livestock species in the region, production volume and economic efficiency. Based on the results of the research, scientific and practical recommendations are developed for the sustainable development of the livestock industry.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING NEFT VA GAZ MINTAQALARINING GEOLOGIK VA IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

**D.A.Olimova** – *assistent o'qituvchi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** neft, gaz, geologiya, iqtisodiyot, sanoat, infratuzilma, ekologiya, barqarorlik.

**Ключевые слова:** нефть, газ, геология, экономика, промышленность, инфраструктура, экология, устойчивость.

**Key words:** oil, gas, geology, economy, industry, infrastructure, ecology, sustainability.

**Kirish.** Jahon neft va gaz mintaqalari geologik va iqtisodiy-geografik xususiyatlari bo'yicha turlicha bo'lib, ularning shakllanishi asosan paleozoy, mezozoy va kaynozoy erasidagi cho'kindi jinslar kompleksiga bog'liq bo'lsa, iqtisodiy ahamiyati esa ularning zaxira hajmi, qazib olish texnologiyalari, transport infratuzilmasi va global energiya bozoridagi strategik o'rni bilan belgilanadi. Yaqin Sharq, Shimoliy Amerika, Rossiya, Markaziy Osiyo va Afrika kabi yirik neft-gaz mintaqalarida gidrokarbonat konlarining chuqurligi va sifati bo'yicha farqlar mavjud bo'lib, ayrim hududlarda an'anaviy usullar bilan neft qazib olish yetakchilik qilsa, boshqa mintaqalarda slanets nefti va tabiiy gazni qazib olish kabi zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilmoqda [9, 10]. Mazkur mintaqalarning neft va gaz sanoati rivojlanishi ushbu resurslarning zaxirasi, tashish yo'nalishlari, xalqaro investitsiyalar va ekologik omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, dunyo bozoridagi neft va gaz narxlarining o'zgarishi bu mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishiga va siyosiy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning yirik uglevodorod zaxiralariga ega bo'lgan davlatlaridan biri hisoblanib, neft va gaz qazib olish sohasi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Geologik tadqiqotlar natijasida respublika hududida neft va gazga boy beshta yirik mintaq hamda

istiqbolli deb baholangan to'rtta mintaq ajratilgan. Ushbu resurslarning hududiy taqsimlanishi va iqtisodiy-geografik jihatdan tahlili ularning ahamiyati va strategik rolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining neft va gaz sanoati hududiy jihatdan Ustyurt, Buxoro-Xiva, Hissor, Surxondaryo va Farg'ona neftgazli regionlari hamda Xorazm, O'rta-Sirdaryo, Markaziy-Qizilqum va Zarafshon neft va gazga istiqbolli hududlariga bo'linib, umumiy hisobda 270 ta neft va gaz konlari aniqlangan. 2018-2020-yillarda neft va gaz sanoati rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri yangi konlarning ochilishi va uglevodorod zaxiralarining ko'payishi bo'lib, bu davrda 11 ta yangi kon ekspluatatsiyaga topshirildi [5]. Ayniqsa, Ustyurt va Buxoro-Xiva regionlarida quyi yura va paleozoy davriga mansub yotqiziqlar o'rganilib, chuqur qatlami 3000 metr-dan ortiq bo'lgan konlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu jarayonda zamonaviy geofizik uskunalar joriy etilib, konlarni o'rganishning ilmiy asoslangan tahliliy metodlari qo'llanildi, uch o'lchamli modellar yaratilib, geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligi oshirildi [6, 8].

### **1. Ustyurt neft va gaz mintaqasi**

Ustyurt neftgazli regioni O'zbekiston Respublikasining g'arbiy qismida, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan. Hududning asosiy geomorfologik xususiyati – Ustyurt platosi bo'lib, u Amudaryo deltasi va sobiq Orol

dengizi havzasi ustida joylashgan tekislikdan iborat. Platon-ing mutlaq balandligi 100–275 metr oralig'ida bo'lib, uning yuzasi asosan sarmat yoshidagi ohaktosh qatlamlari bilan qoplangan. Ustyurt platosi qo'shni hududlardan "chink" deb ataluvchi tik jarliklar bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda Ustyurt regionida jami 25 ta neft va gaz koni ochilgan bo'lib, ularning 22 tasi davlat balansida (jadval). Stratigrafik jihatdan, regiondagi neft va gaz konlari paleozoydan yuqori yura davrigacha bo'lgan

yotqizilarda uchraydi. Ushbu hududda birinchi kon – *Shaxpaxti* – 1963 yilda ochilgan [1, 5].

Bu hududning iqtisodiy-geografik ahamiyati yuqori bo'lib, neft va gaz qazib olish sanoati mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq, qazib olish infratuzilmasining rivojlanmaganligi, transport va texnologik ta'minotdagi qiyinchiliklar hamda ekologik muammolar mintaqada yanada samarali faoliyat yuritish uchun muayyan to'siqlarni keltirib chiqaradi.

**O'zbekiston Respublikasining neft va gazli mintaqalari**

| Neftgazli mintaq            | Hududiy joylashuvi                                           | Geomorfologik xususiyatlari                                                                  | Neft va gaz konlari soni | Ishlatilayotgan konlar | Stratigrafik tarkibi                         | Zaxira hajmi (mlrd m <sup>3</sup> /g tonna)    |
|-----------------------------|--------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|------------------------|----------------------------------------------|------------------------------------------------|
| <b>Ustyurt</b>              | Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekistonning g'arbiy qismi | Dengiz jinslari bilan qoplangan tekislik, Amudaryo deltasi, Sultonuvays tog'lari mavjud      | 25 ta                    | 22 ta                  | Paleozoydan yuqori yura davrigacha           | 750 mlrd m <sup>3</sup> gaz, 50 mln tonna neft |
| <b>Buxoro-Xiva</b>          | Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand viloyatlari           | Pasttekislik, cho'l (Qizilqum, Qarshi cho'li), tog' oldi hududlar                            | 190 ta                   | 68 ta                  | Quyi-o'rta yura-yuqori bo'r                  | 900 mlrd m <sup>3</sup> gaz, 90 mln tonna neft |
| <b>Janubi-G'arbiy Hisor</b> | Qashqadaryo viloyati                                         | Tog'li hudud (Hisor tizmasi), G'uzardaryo va O'radaryo vodiylari                             | 20 ta                    | 5 ta                   | Yura davri karbonat va terrigen yotqiziqlari | 120 mlrd m <sup>3</sup> gaz, 15 mln tonna neft |
| <b>Surxondaryo</b>          | Surxondaryo viloyati                                         | Tog' oralig'idagi cho'kma havza (Boysun havzasi, Kelif-Sariqamish tizmasi), Amudaryo vodiysi | 15 ta                    | 8 ta                   | Paleogen yotqiziqlari                        | 100 mlrd m <sup>3</sup> gaz, 12 mln tonna neft |
| <b>Farg'ona</b>             | Farg'ona vodiysi                                             | Tog'lararo cho'kma havza (Tyan-Shan orogeni), adirlar va tekisliklar                         | 32 ta                    | 22 ta                  | Paleozoy, yura, bo'r, paleogen, neogen       | 85 mlrd m <sup>3</sup> gaz, 45 mln tonna neft  |

*Jadval ilmiy izlanishlar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

## 2. Buxoro-Xiva neft va gaz mintaqasi

Buxoro-Xiva neftgazli mintaqasi O'zbekiston Respublikasining janubi-g'arbiy tekislik qismini egallaydi. Ma'muriy jihatdan Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarining asosiy qismlarini, shuningdek, Navoiy va Samarqand viloyatlarining janubiy hududlarini o'z ichiga oladi.

Orografik nuqtayi nazardan, hudud asosan cho'l (Qizilqum), yarim cho'l (Qarshi va Qarnabcho'l) va tog'oldi zonalaridan iborat. Janub va shimoli-g'arbiy qismida O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi joylashgan. Shimolda Markaziy Qizilqumning baland tekisliklari, shimoli-sharqda Turkiston va Zarafshon tog' tizmalari, janubi-sharqda esa janubi-g'arbiy Hisor tog' tizmalari bilan chegaralangan.

Bugungi kunga kelib, Buxoro-Xiva mintaqasida jami 190 ta neft va gaz koni topilgan bo'lib, ulardan 178 tasi O'zbekiston Respublikasi Davlat balansida keltirilgan. Ushbu mintaqadagi birinchi gaz koni – *Setalantepa* – 1953-yilda aniqlangan. Mintaqada sanoat ahamiyatiga ega uglevodorod konlarining stratigrafik qamrovi quyi-o'rta yura davridan yuqori bo'r davrigacha bo'lgan yotqiziqlarni o'z ichiga oladi [2, 4]. Buxoro pog'onasi mahsulдор

qatlamlarning stratigrafik qamrovi jihatidan Chardjou pog'onasidan kengroq diapazonga ega.

